

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SHEROV DILMUROD XAMRA O‘G‘LI

**KUNJUT HOSILINI YANCHIB OLADIGAN QURILMANI ISHLAB
CHIQUISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Sherov Dilmurod Xamra o‘g‘li

Kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash..... 3

Шеров Дилмурод Хамра угли

Разработка и обоснование параметров устройства для обмолота урожая кунжута 19

Sherov Dilmurod Khamra ugli

Development and justification of the parameters of a device for threshing sesame harvest 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

SHEROV DILMUROD XAMRA O‘G‘LI

**KUNJUT HOSILINI YANCHIB OLADIGAN QURILMANI ISHLAB
CHIQUISH VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 - Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/T5445 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida www.qxmiti.uz va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ravshanov Shavkat Ulashovich
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Raxmatov Orifjon
texnika fanlari doktori, professor

Mamajanov Sultonali Islomaliyevich
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**Qishloq xo'jaligi texnikasi va texnologiyalarini
sertifikatlash va sinash markazi**

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "15" 01 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (511 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " 24 " 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil " 24 " 12 dagi № 68 raqamli reestr bayonnomasi).



A.To'xtaqoziev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, texnika fanlari doktori, professor

B.P.Artikbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha
falsafa doktori, katta ilmiy xodim

R.R.Xudaykuliye
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika
fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘ini boshqoq va dukkaklaridan ajratib olish uchun energiya va resurstejamkor hamda ish unumi yuqori bo‘lgan texnologiyalar va qurilmalarni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. XX asr oxiriga kelib dunyo bo‘yicha kunjut yetishtirish hajmi qariyb 3 mln. tonnani tashkil etgan bo‘lib, 2024-yilda 11 mln. gektar maydondan 7 mln. tonnadan ortiq kunjut yetishtirilganini hisobga olsak¹, uning hosilini yig‘ishtirishda ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor mashinalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shu jihatdan kunjut hosilini yanchib olish texnologik ish jarayonining yuqori ish sifatini ta‘minlaydigan qurilmalarni ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda qishloq xo‘jalik ekinlari, jumladan kunjut hosilini yanchib olish samaradorligini oshirish uchun energiya va resurstejamkor hamda ish unumi yuqori bo‘lgan texnologiyalar va qurilmalarni ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan kunjut hosilini yanchib oladigan texnika vositalari ish organlarining kunjut poyalari va ko‘sakchalari bilan o‘zaro ta‘sirlashish jarayonida urug‘larning yuqori darajada ajratib olinishini hamda kam shikastlanishini ta‘minlaydigan konstruktiv sxemasini ishlab chiqish va texnologik ish jarayonini asoslash, ish sifati va resurstejamkorlikni ta‘minlaydigan ish organlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning bilan birga, kunjut hosilini yanchib olish uchun urug‘larni kam shikastlagan holda talab darajasida ajratib oladigan qurilmani ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo‘jalik ekinlarini ilg‘or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo‘jaligi mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, kam energiya sarflab, texnologik ish jarayonini sifatli bajarilishini ta‘minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida “... qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy etish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish fermer xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash”² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda, qishloq xo‘jalik ekinlari urug‘i, jumladan Respublikamiz sharoitida yetishtirilayotgan kunjut hosilini yanchib olish qurilmasini ishlab chiqish hamda uning yanchib olish to‘liqligini oshirish va shikastlanish darajasini kamaytirish muhim omillardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini

¹ <https://www.marketgrowthreports.com/market-reports/sesame-seeds-market-111157>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Farmoni.

rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son "Qishloq xo'jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo'jaligi texnikalari bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 331-sonli "Qoraqalpog'iston Respublikasida kunjut va mosh ekinlarini yetishtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jalik ekinlari hosilini yig'ishtirishda o'rish va yanchish jarayonlarini o'rganish hamda uni amalga oshiradigan mashina va qurilmalarining konstruksiyalarini ishlab chiqishga A.S.Starsev, R.Zaikov, A.Trifonov, P.Petrov, N.I.Klenin, V.G.Antipin (Rossiya), M.Deshev, I.D.Vasilenko, E.I.Lipkovich (Ukraina), D.G.Langxem, G.Bultoza, R.Stivens (Isroil), X.Zebib, S.Abera (Efiopiya), X.Darvish, V.Yilmaz, I.Akinchi, O.Olugbodji (Turkiya), R.Abishek, R.Tivari, M.Kumar, R.Nayk, S.Patel, S.Zari, S.Abdollaxpur (Hindiston), K.Xyun, J.Li, M.Din, K.Kim (Janubiy Koreya), T. Zhong, L. Yuan, F. Wang, Z. Su (Xitoy) va boshqalar salmoqli hissalarini qo'shishganlar.

Respublikamizda qishloq xo'jalik ekinlari urug'ini boshqoq va dukkaklaridan ajratib olish jarayoni hamda uni amalga oshiradigan texnik vositalarni ishlab chiqish bilan R.I.Boymetov, K.D.Astanaqulov, Sh. Ravshanov, J.Nurmatov, X.Tog'ayev, S.Mo'minov, O.Pardayev, G'.G'.Egamnazarov va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Mazkur tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan mashina va qurilmalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanilib kelinmoqda. Lekin kunjut hosilini yanchib olishda nobudgarchilikni kamaytirish bilan birga energiya va resurstejamkorlikni ta'minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqish va ishchi qismlari parametrlarini asoslash bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan, jumladan respublikamiz sharoitida kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining "Ekinlar hosilini yig'ishtirish mashinalari" laboratoriyasining "Kunjut hosilini yig'ishtirishning mexanizatsiyalashgan texnologiya va texnika vositalarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash orqali kunjut hosilini yanchishni mexanizatsiyalashtirish hamda qo'l mehnati sarfi va boshqa xarajatlarni

kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilab olindi:

kunjut hosilini yanchib olishda qo'llaniladigan texnologiyalar va ularni amalga oshiradigan texnika vositalariga doir ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

kunjut urug'larining fizik-mexanik xossalarini o'rganish;

kunjut hosilini yanchib olishda qo'llaniladigan qurilma parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish;

asoslangan parametrlarga ega bo'lgan kunjut hosilini yanchish qurilmasining tajriba nusxasini tayyorlash, xo'jalik sinovlarini o'tkazish hamda uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida kunjut hosilini yanchib olish qurilmasi va uning texnologik ish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini kunjut hosilini yanchib oladigan qurilma faol ish organlarining kunjut poyasi va urug'lari bilan o'zaro ta'sirlashish jarayonlari va parametrlarini ifodalaydigan analitik bog'lanishlar, qurilmaning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini uning parametrlari hamda ish rejimiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda tenzometriya usullari va mavjud me'yoriy hujjatlarda (ГОСТ 20915-11. «Испытания сельскохозяйственной техники. Методы определения условий испытаний», О'zDSt 2904:2014 "O'simlik mahsulotlarini yetishtirishning mashinalashgan texnologiyalari. Sinovlarni o'tkazishni tashkil etish", O'zDSt 3111:2016 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Texnik parametrlarni nazoratlash usuli. Sinov dasturi va usullari" hamda O'zDSt 3193:2017 "Qishloq xo'jaligi texnikasini sinash. Mashinalarni energetik baholash usuli") keltirilgan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yanchish qurilmasining konstruktiv sxemasi va texnologik ish jarayoni kunjut hosili yanchilishini talablar darajasida ta'minlanishi hisobga olinib ishlab chiqilgan;

qurilmaning konstruktiv o'lchamlari va ish rejimlari urug'larni ajratish to'liqligi yuqori hamda shikastlanishi minimal bo'lishi shartidan kunjut poyalari, ko'saklari va urug'larining fizik-mexanik xossalarini hisobga olgan holda asoslangan;

texnologik jarayonni ifodalaydigan analitik bog'lanishlar va matematik modellar ish jarayonida yanchish barmoqlarining kunjut urug'lari bilan o'zaro ta'sirlashishiga bog'liq ravishda keltirib chiqarilgan;

yanchish qurilmasining maqbul parametrlari uning agrotexnik ish ko'rsatkichlarini baholaydigan regressiya tenglamalarini birgalikda kunjut hosilini ajratish to'liqligi yuqori va kunjut urug'larining shikastlanish darajasi minimal bo'lishi shartlaridan yechish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kunjut hosilini yanchib, urug'larini yirik va mayda aralashmalardan g'alvirlar

va havo oqimi yordamida tozalab beradigan resurstejamkor qurilma ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan qurilma kunjut hosilini yanchishda qo'llanilganda ajratish to'liqligining oshishi, urug' nobudgarchiligi va qo'l mehnati sarfining kamayishi hisobiga energiya va resurslarni tejashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy izlanishlar zamonaviy usullar va o'lchov vositalaridan foydalanilgan holda o'tkazilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, kunjut hosilini yanchib oladigan qurilma sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning konstruktiv o'lchamlari va ish rejimini aniqlash imkonini beradigan ifodalar olinganligi hamda ulardan shunga o'xshash boshqa qurilmalarning parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan baholanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmadan foydalanganda, bir vaqtning o'zida kunjut hosili yanchib olinishi va yirik hamda mayda aralashmalardan tozalanishi, yanchish to'liqligi yuqori va urug'larning shikastlanish darajasi minimal bo'lishi ta'minlanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 5-maydagi 05/01-05/02-05/04-03-173-son ma'lumotnomasi). Natijada, kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqilgan kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning tajriba nusxasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutining tajriba uchastkasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Beruniy tumanidagi fermer xo'jaliklarida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 5-maydagi 05/01-05/02-05/04-03-173-son ma'lumotnomasi). Natijada, kunjut hosilini yanchib oladigan qurilma qo'llanilganda urug'ni ajratish to'liqligi 98,2 % va urug'ning shikastlanishi 1,8 % ni tashkil etgan;

kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) "BMKB-Agromash" AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 5-maydagi 05/01-05/02-05/04-03-173-son ma'lumotnomasi). Natijada, asoslangan parametrlarga ega bo'lgan kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqarish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 109 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotni respublika fan va texnologiyalar rivojlanishini ustuvor yo'nalishlariga mos kelishi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslab berilgan, olingan natijalarni nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Masalaning qo'yilishi hamda tadqiqotning maqsad va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida kunjutning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, kunjut yetishtirish va yig'ishtirishning hozirgi vaqtdagi holati, hosilni yanchib, urug'ini tozalash uchun mavjud bo'lgan qurilmalar va shu yo'nalishda avval bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining tahlili keltirilgan hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Kunjut o'simligining fizik-mexanik xossalarini o'rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobida kunjut o'simligining fizik-mexanik xossalarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarning tahlili, “Toshkent-122” mahalliy kunjut navining fizik-mexanik xossalari, ularning turlicha materiallar sirtlida ishqalanish burchaklari qiymatlari va urug'larning o'lchamlarini aniqlash natijalari keltirilgan.


Tajribaviy tadqiqotlar natijasida ishqalanish burchagining eng kichik qiymatlari zanglamaydigan po'lat sirtida $20^{\circ}24'$ dan $24^{\circ}30'$ gacha oraliqda bo'lishi, texnologik yetilishdan konditsion yetilishga o'tishda ishqalanish burchagi qiymati 5,5 % gacha kamayishi, kunjut urug'larining uzunligi, eni va qalinligi, mos ravishda o'rtacha 2,6 mm, 1,7 mm va 0,9 mm, 1000 dona kunjut urug'ining massasi o'rtacha 2,8 g ni tashkil etishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning parametrlarini nazariy asoslash”** deb nomlangan uchinchi bobida kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslashga doir o'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqilgan kunjut hosilini yanchib oladigan qurilma rama va unga mahkamlangan elektr dvigateli, yanchish apparati, g'alvirlar va ventilyatordan tashkil topgan (1-rasm). Yanchish apparati uning valiga o'rnatilgan pichoqlar, yanchish barmoqlari, yanchilgan poyalarni chiqarib yuborish parraklari, yanchiladigan va yanchilgan massani uzatish novlari bilan jihozlangan. Yanchish

barmoqlari silindr shaklida ishlangan va valga spiralsimon joylashtirilgan. Bu ish jarayonida yanchilayotgan massani yanchish barabani bo‘ylab siljishini va urug‘lar shikastlanishining kamayishini ta‘minlaydi.

Qurilmaning ish jarayonida uzatish novi orqali yanchish barabaniga kiritilgan yanchiladigan massani pichoqlar kesadi va yanchish barmoqlariga uzatadi, ular o‘z navbatida zarba ta‘sirida urug‘larni ko‘sakchalardan ajratib o‘simlik massasini yanchish barabani bo‘ylab siljitadi hamda urug‘lari ajratib olingan yirik aralashmali poyalarni chiqarish parraklari yordamida tashqariga chiqarib yuboradi.



1 – yanchish barmoqlari; 2 – uzatish novi; 3 – pichoqlar; 4 – yanchish barabani vali; 5 – maydalangan massani elakka uzatish novi; 6 – rama; 7 – birlamchi elak; 8 – ikkilamchi elak; 9 – havo purkash kanali; 10 – ventilyator; 11 – elektrdvigatel; 12 – poyalarni chiqaradigan parraklar; 13 – yanchilgan poyalarni chiqarish kanali; 14 – yanchish barabani

1-rasm. Kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning konstruktiv va texnologik sxemasi

Maydalangan urug‘li massa yanchish barabani tagida joylashgan dekan o‘tib, yanchilgan massani uzatish novi orqali elakka tushadi. Birlamchi elak urug‘larni yirik, ikkilamchi elak esa mayda og‘ir aralashmalardan ajratadi. Birlamchi va ikkilamchi elaklar oralig‘iga yo‘naltirilgan havo kanali urug‘larni yengil aralashmalardan tozalaydi. Ikkilamchi elakda ajratib olingan toza urug‘lar urug‘ idishiga yo‘naltiriladi.

Quyidagilar kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning ish ko‘rsatkichlariga ta‘sir etadigan parametrlari hisoblanadi: D_b – va L_b – yanchish barabanining diametri va uzunligi, m; h_t – va D_t – yanchish barmoqlarining uzunligi va diametri, mm; a_0 – yanchish barmoqlari orasidagi masofa, m; γ – yanchish barmoqlari orasidagi burchak, grad; R_d – dekaning radiusi, m, t_d – yanchish barabanining ishchi tiriqishi, m.

Yanchish barabanining diametri urug‘larni yanchib olish unumdorligi va samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatadi: katta diametr bir xil burchak tezligida yanchish barmoqlarining chiziqli tezligini oshiradi, bu esa urug‘ni tezroq va samaraliroq yanchish imkonini beradi, ammo tezlik haddan tashqari katta yoki noto‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, urug‘ning maydalanishiga va yo‘qotishlarning ko‘payishiga olib kelishi mumkin.

Baraban diametri quyidagi ifodadan aniqlanadi

$$D_b = \frac{60 \cdot V_b}{\pi \cdot N_b}, \quad (1)$$

bunda V_b – yanchish barabanining chiziqli tezligi, m/s;

N_b – yanchish barabanining aylanishlar soni, r/min.

Ilgari bajarilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, $V_b=13,1$ m/s va $N_b = 500$ r/min qabul qilsak, (1) ifodadan $D_b = 500$ mm bo‘lishi kelib chiqadi.

Yanchish barabanining uzunligini (L_b) Ye.I.Lipkovich tomonidan taklif etilgan ifoda bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$L_b = \frac{q_m}{\Delta \cdot \eta \cdot \rho \cdot v_k}, \quad (2)$$

bunda L_b – yanchish barabanining uzunligi, m; q_m – yanchish qurilmasining o‘tkazish qobiliyati, kg/s; Δ – uzatilayotgan o‘simlik massasining qalinligi, $\Delta=0,012$ m (yanchish apparatiga kirishda uzatish novining balandligiga teng); η – baraban uzunligidan foydalanish koeffitsienti $\eta=0,7-0,8$; ρ – uzatilayotgan o‘simlik massasining uyum zichligi; $\rho=15-25$ kg/m³, v_k – o‘simlik massasini uzatish tezligi; 1-1,2 m/s.

Yanchish qurilmasining tavsiya etilgan ish unumi – 100 kg/h. Kunjut urug‘i va poyasining o‘rtacha nisbati 1:3 ekanligidan kelib chiqib, 1,8 kW quvvat talab etadigan yanchish qurilmasining o‘tkazish qobiliyatini quyidagi ifodadan aniqlaymiz:

$$q_m = (100 + 100 \cdot 3) \cdot 1,8 = 720 \text{ kg/h} = 0,2 \text{ kg/s}.$$

Yuqoridagi qiymatlardan foydalangan holda, (2) ifodadan yanchish barabanining uzunligi $L_b=1050$ mm ga teng bo‘lishini aniqlaymiz.

Yanchish barabani valining diametri yuqori mustahkamlikni ta‘minlash orqali yuqori yuklamalarda uning sinish yoki deformatsiyalanish xavfini kamaytirish, nuqtai nazaridan $d \geq 46$ mm bo‘lishi lozim.

Dekaning parametrlarini asoslash. Yanchish barabanida o‘simlik massasining tiqilib qolmasligi, shuningdek, urug‘ning poyalar bilan tashqariga chiqarib yuborilmasligi va ortiqcha mexanik ta‘sir natijasida shikastlanmasligi hamda urug‘li aralashmaning elakka to‘liq uzatilishini ta‘minlash maqsadida dekaning uzunligi va radiusi yanchish barabani uzunligi va radiusiga teng qilib olinadi, ya‘ni: $L_d = L_b = 1050$ mm va $R_d = R_b = 250$ mm.

Dekaning kengligi quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlandi


$$B_d = \frac{\pi R_d \eta}{180^\circ} \quad (3)$$

bunda n – dekaning qamrash burchagi, $n = 120^\circ$.

Tegishli qiymatlardan foydalanib, (3) ifodadan dekaning kengligi $B_d = 545$ mm bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Yanchish barmoqlarining parametrlarini aniqlash. Qurilmaning texnologik ish jarayonida kunjut urug‘ini ko‘saklaridan ajratib olishni tassavur qilish uchun yanchish barmoqlarining ko‘saklar bilan o‘zaro ta‘sirini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yanchish barmoqlari tomonidan ko‘saklarga ko‘rsatilayotgan ta‘sir kuchi F natijasida, ulardan urug‘larini ajralish jarayonini ko‘rib chiqamiz (2-rasm).

Yanchish barmoqlari 1 tomonidan ko'rsatilayotgan ta'sir kuchi F natijasida, kunjut ko'sagi 2 ning x o'qiga nisbatan siqilish va y o'qiga nisbatan cho'zilish deformatsiyasi yuz beradi. Yanchish barmog'i tomonidan ko'saklarga ko'rsatilayotgan ta'sir kuchi F natijasida hosil bo'lgan siqadigan kuch momenti $M(y_2)$ va sferasimon shaklda bo'lgan kunjut ko'sagining markazidan o'tgan y o'qiga nisbatan inersiya moment $J(y_2)$ orasidagi o'zaro bog'liqlik tenglamasi quyidagicha bo'ladi



1 – yanchish barmog'i; 2 – ko'sakli kunjut
2-rasm. Yanchish barmog'i bilan kunjut ko'sagining o'zaro ta'sirlashish sxemasi

$$\frac{EJ(y_2)d^2x_2}{dy_2^2} = M(y_2), \quad (4)$$

bunda E – kunjut ko'sagining elastiklik moduli, Pa; x_2 – kunjut ko'sagining x o'qi bo'yicha deformatsiyasi, m; y_2 – kunjut ko'sagining y o'qi bo'yicha deformatsiyasi, m; $M(y_2)$ – ko'sakni siqadigan kuch momenti, N·m; $J(y_2)$ – ko'sakning y o'qiga nisbatan inersiya momenti, m⁴.

(4) ifodani ikki marta integrallab hamda boshlang'ich shartlardan foydalanib, ta'sir kuchi natijasida kunjut ko'saklarining deformatsiyasini topish uchun quyidagi ifodani olamiz

$$x_2 = \frac{F_{el}}{\pi ER} \left[2 - \frac{2R - y_2}{R} \ln \frac{2R - y_2}{R} - \frac{y_2}{R} \ln \frac{y_2}{R} + 2 \ln \frac{2R - y_2}{R} \right] + \left(\frac{2F_{el}}{\pi ER^2} \right) y_2 - \frac{4F_{el}}{\pi ER}, \quad (5)$$

bunda R – kunjut ko'sagining o'rtacha midal radiusi, m.

Agar yanchish barmoqlari tomonidan kunjut urug'ini ko'saklaridan ajratib olish uchun sarflanadigan maksimal ta'sir kuchi F ko'sakni faqat eni bo'yicha siqishga sarflansa, ya'ni $x_2 = x_{2max}$ va $y_2 = 0$ bo'lsa, (5) ifoda quyidagi ko'rinishga keladi

$$x_{2max} = -\frac{2F_{el}}{\pi ER}. \quad (6)$$

(6) ifodani F_{el} ga nisbatan yechib hamda $F = -F_{el}$ ga teng ekanligidan foydalanib, quyidagi ifodani hosil qilamiz

$$F = -F_{el} = \frac{\pi ER}{2} x_{2max} \quad (7)$$

Kunjut ko'sagining maksimal deformatsiyasi $x_{2max} = 0,0015$ m, o'rtacha midal radiusi $R = 0,001$ m va elastiklik modulining hisoblangan qiymati $E = 0,6 \cdot 10^6$ Pa ni (7) ifodaga qo'yib, kunjut urug'ini ko'saklaridan ajratib olish uchun talab etiladigan ta'sir kuchining maksimal qiymati $F_T = 1,41$ N ga teng bo'lishini topamiz.

Yanchish barmoqlarining umumiy sonini quyidagicha hisoblash mumkin

$$z = L_b/a_o - z_p, \quad (8)$$

bunda z – barmoqlarning umumiy soni, dona; L_b – yanchish barabani uzunligi, mm; a_o – barmoqlar orasidagi bo'ylama masofa, ($a_o = 95-158$ mm tanlab olingan qiymat

– 120 mm); z_p – val o‘rnatilgan pichoqlar qatorini hisobga olinadigan koeffitsient, bizning holatda $z_p = 1$.

Barmoqlar orasidagi burchak yanchish apparatida o‘simlik massasining baraban o‘qi bo‘ylab bir tekis harakatlanishini ta‘minlash uchun barmoqlar spiralsimon shaklda joylashtirilishi shartidan aniqlanadi

$$\gamma = 360^\circ/z, \quad (9)$$

Yanchish barmog‘ining diametrini aniqlash uchun unga faqat yanchish paytida o‘simlik tomonidan eguvchi kuch ta‘sir qiladi va kuchning ta‘sir nuqtasi silindrsimon barmoqning oxirida ($h_t = 215$ mm) deb qabul qilamiz.

Yanchish barmog‘iga ta‘sir etuvchi eguvchi moment

$$M = P \cdot h_t, \quad (10)$$

Yanchish paytida barmoqqa ta‘sir qiluvchi tangensial kuch

$$P = (m' \cdot V_m)/(1 - f), \quad (11)$$


bunda $m' = \Delta m/\Delta t$ (Δm – yanchish barmog‘iga ta‘sir etuvchi material massasi, kg; Δt – ta‘sir vaqti, s); V_m – materialning Δt vaqt ichida olgan tezligi, m/s (barmoqlar periferik tezligiga teng); f – ishchi tirqishda materialning ishqalanish proporsionallik koeffitsienti (doira kesimli barmoqlar uchun $f = 0,7-0,8$).

$$D_b \geq \sqrt{4A/\pi}, \quad (12)$$


Yuqoridagi ifodalar bo‘yicha hisoblashlardan so‘ng $z=8$ dona; $\gamma=45^\circ$; $m'=0,2$ kg/s; $M=2,82$ N·m $P=13,1$ N;; $A \geq 65,2$ mm² va $D_b \geq 9,11$ mm bo‘lishi lozimligini aniqlaymiz.

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish usullari va natijalari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida ishlab chiqilgan kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmaning kunjut hosilini ajratish to‘liqligi, urug‘ning umumiy yo‘qotilishi, shikastlanishi va ish unumiga baraban ishchi tirqishining kengligi, yanchiladigan massani yanchish barabaniga uzatish tezligi va yanchish barabanining aylanishlar sonining ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan bir va ko‘p omilli tajribalarning natijalari keltirilgan.

Kunjut hosilini yanchishda mustaqil parametrlarning o‘zgarish oraliqlarini aniqlab olish maqsadida bir omilli tajribalar o‘tkazildi va ularning natijalari 3-5-rasmlarda tasvirlangan.




3-rasm. Kunjut urug‘ini ajratish to‘liqligi(η_d)ni yanchish barabani valining aylanishlar soni(N_b)ga bog‘liq o‘zgarishi



4-rasm. Kunjut urug‘ini ajratish to‘liqligi(η_d)ning deka ishchi tirqishi(B_d)ga bog‘liq o‘zgarishi

3- va 4-rasmlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, barabanning aylanishlar soni va ishchi tirqishi kengligi yanchish qobiliyatiga sezilarli ta'sir qiladi. Barabanning aylanishlar soni va deka ishchi tirqishining o'zaro ta'siri ham juda muhim bo'lib, ishchi tirqishga bog'liq ravishda barabanning aylanishlar soni yanchish qobiliyatiga differensial ta'sir qiladi. Barabanning aylanishlar sonining ortishi bilan ajratish to'liqligi ham oshib bordi (3-rasm),



5-rasm. Urug' shikastlanishining ishchi tirqish kengligiga bog'liqligi


lekin ishchi tirqish kengayib borishi bilan kamaydi (4-rasm). Shuningdek, barabanning aylanishlar sonining oshishi urug'ning mexanik shikastlanishining ortishiga olib keldi. (5-rasm). Bunda eng kam urug' mexanik shikastlanishida yuqori ajratish to'liqligiga barabanning aylanishlar sonini 500 r/min va ishchi tirqishining kengligi 6 mm ga teng bo'lganda erishiladi.

Yanchiladigan massani uzatish tezligi va yanchish barabani aylanishlar sonining ajratish to'liqligiga ta'sirini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalarda olingan natijalar 6-rasmda tasvirlangan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, eng yuqori ajratish to'liqligiga 98,82 % o'simlik massasini 650 kg/h uzatish tezligida va yanchish barabanining 500 r/min aylanishlar sonida erishilgan. Minimal ajratish to'liqligiga 92,22 % esa 550 kg/h uzatish tezligi va 400 r/min aylanishlar sonida kuzatilgan hamda uzatish tezligining 550 dan 650 kg/h gacha oshirilishi ajratish to'liqligini 3,23 % gacha ortishiga olib keldi.

Uzatish tezligining oshishi bilan ajratish to'liqligining oshib borishi kuzatildi, biroq, 700 kg/h uzatish tezligida u kamayishni boshladi. Shuningdek, uzatish tezligining bir xil qiymatlarida aylanishlar sonini 400 dan 500 r/min gacha oshishi ajratish to'liqligini 3,5-4,7 % ga ortishiga olib keldi, lekin 600 r/min aylanishlar sonida ajratish to'liqligini 1,5-1,9 % gacha kamayishiga olib keldi. Bu holat uzatish tezligi va baraban aylanishlar soni juda yuqori bo'lganda, o'simlik massasining bir qismi to'liq yanchilishga ulgurmasligi va urug' poyalar bilan birga chiqarib yuborilishi bilan izohlanadi.


Yanchiladigan massani uzatish tezligi va yanchish barabani aylanishlar sonining umumiy urug' yo'qotilishiga ta'sirini o'rganish bo'yicha eksperimental tadqiqotlar natijalari 7-rasmda tasvirlangan. Uning tahlili shuni ko'rsatadiki, uzatish tezligining oshishi yanchish barabanining barcha aylanishlar sonida urug' nobudgarchiligini ham ortishiga olib kelgan. Bunda 1,3 % minimal urug' yo'qotilishi 550 kg/h uzatish va barabanning 500 r/min aylanishlar sonida, eng katta 3,1 % urug' yo'qotilishi esa 700 kg/h va 400 r/min aylanishlar sonida aniqlandi.

Shuning bilan birga, barabanning aylanishlar soni 400 dan 500 r/min gacha oshirilganda urug' yo'qotishlari kamaydi, biroq aylanishlar sonini 600 r/min gacha oshishi urug' nobudgarchiligini ortishiga olib keldi. Birinchi holatda, yanchish kamerasidagi barmoqlardan o'simlik massasiga energiya uzatishning yuqori tezligi va deka bilan barmoqlar orasidagi o'simlik massasini ishqalanish kuchining ortishi



1-400 r/min; 2-500 r/min; 3-600 r/min

6-rasm. Kunjut urug'ini ajratish to'liqligi(η_d)ni o'simlik massasini uzatish tezligi(q_m)ga bog'liq ravishda o'zgarishi




1-400 r/min; 2-500 r/min; 3-600 r/min

7-rasm. Umumiy urug'lar yo'qotilishi(η_U)ni o'simlik massasini uzatish tezligi(q_m)ga bog'liq ravishda o'zgarishi


urug' yo'qotishlarini kamayishiga sabab bo'lsa, ikkinchi holatda barabanning ortiqcha aylanishlar soni urug'li massani dekadadan to'liq o'tishiga imkon bermasdan, tashqariga chiqarib yuborishi bilan izohlanadi.

8-rasmda uzatish va barabanning aylanishlar soni bilan urug'ning shikastlanishi o'rtasidagi bog'liqlik tasvirlangan. Undan ko'rinadiki, uzatish tezligining 550 dan 700 kg/h gacha, baraban aylanishlar sonining 400 dan 600 r/min gacha oshishi mos ravishda shikastlanishning 0,3 % va 0,75 % ga ortishiga olib keldi. 700 kg/h uzatish va 600 r/min aylanishlar sonida maksimal 1,5 %, 550 kg/h va 400 r/min qiymatlarda esa minimal shikastlanish kuzatildi.



1-400 r/min; 2- 500 r/min; 3- 600 r/min

8-rasm. Urug' shikastlanishi(η_{sh})ning o'simlik massasini uzatish tezligi(q_m)ga bog'liq ravishda o'zgarishi



1-400 r/min; 2- 500 r/min; 3- 600 r/min

9-rasm. Ish unumi(Q)ning o'simlik massasini uzatish tezligi(q_m)ga bog'liq o'zgarishi

Bunda barabanning juda yuqori aylanishlar sonida urug'ga zarba kuchining ortishi va uning shikastlanishi ortishiga, uzatish tezligining ortishi esa massa qalinligini ortishi hisobiga shikastlanish kamayishiga sabab bo'ladi.

9-rasmda yanchish qurilmasi ish unumining massani uzatish tezligi va baraban aylanishlar soniga bog‘liqligini o‘rganish bo‘yicha tajribalar natijalari tasvirlangan. Rasmdan uzatish tezligining 550 dan 650 kg/h gacha ortishi ish unumining 14 % gacha sezilarli oshishiga olib kelganligini, uzatishning keyingi 700 kg/h gacha ortishi bilan ish unumining oshishi sekinlashganini va 2,7 % ni tashkil etganinini ko‘rish mumkin. Bunda maksimal 209,3 kg/h va minimal 179,4 kg/h ish unumlari mos ravishda barabanning aylanishlar soni va uzatishning 500 r/min, 700 kg/h va 400 r/min, 550 kg/h qiymatlarida qayd etildi.

Shuni qayd etish lozimki, uzatish tezligini oshirish vaqt birligi ichida ishlov beriladigan ekin (va shunga mos ravishda urug‘) miqdorining oshishiga olib keladi, bu esa umumiy ish unumini oshiradi. Biroq, haddan tashqari yuqori uzatish tezligida urug‘li massa dekan to‘liq o‘tishga ulgurmasligi mumkin va natijada urug‘ning bir qismi yanchilmasdan qoladi. Urug‘ yo‘qotilishining ko‘payishi uzatish tezligini cheklovchi asosiy omil hisoblanadi. Bundan tashqari, yuqori uzatish tezligi yanchish barabaniga tushadigan yukni oshiradi, bu esa yanchish paytida urug‘ning shikastlanishiga olib kelishi mumkin va bu hosil sifatini pasaytiradi. Shundan kelib chiqib, tajribalar natijalaridan minimal shikastlanish va yo‘qotishlarda eng yuqori ish unumiga erishish uchun optimal uzatish tezligi 650 kg/h bo‘lishi lozimligi aniqlandi.

Kunjut hosilini yanchib olish qurilmasining nazariy va bir omilli eksperimentlarda o‘rganilgan parametrlarining maqbul qiymatlarini aniqlash uchun Xartli-4 rejasi bo‘yicha ko‘p omilli ekperimentlar o‘tkazildi. Bunda yanchish barmoqlari soni (X_1), yanchish barmoqlari bilan deka orasidagi tirqish (X_2), yanchish barabanining aylanishlar soni (X_3) va o‘simlik massasini uzatish tezligi (X_4) uning ish-sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi.

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezonni sifatida kunjut urug‘ini ajratish to‘liqligi va kunjut urug‘ining shikastlanish darajasi olindi.

Tajriba natijalariga “PLANEXP” dasturida ishlov berildi va dispersiyaning bir xilligini baholashda Koxren, regressiya koeffitsientlari qiymatini baholashda Styudent, regression modellarning adekvatligini baholashda Fisher kriteriyalaridan foydalanildi hamda baholash mezonlarini adekvat ifodalovchi quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

kunjut urug‘ini ajratish to‘liqligi bo‘yicha, %:

$$Y_1 = 98,161 + 0,756X_1 - 0,966X_4 - 1,099X_1^2 - 0,654X_1X_2 + 0,679X_1X_4 - 0,782X_2^2 + 1,462X_2X_3 - 0,999X_3^2 - 0,832X_4^2; \quad (13)$$

kunjut urug‘ining shikastlanish darajasi bo‘yicha, %:

$$Y_2 = 0,915 + 0,095X_1 - 0,216X_2 + 0,241X_3 + 0,095X_4 + 0,722X_1^2 + 0,050X_1X_2 + 0,095X_1X_4 + 0,197X_2^2 - 0,104X_2X_4 + 0,162X_3X_4. \quad (14)$$

Ushbu olingan regressiya tenglamalari tahlilidan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Olingan (13) va (14) regressiya tenglamalari Y_1 mezon 98 % va undan yuqori, Y_2 mezon 2 % va undan kamroq bo‘lishi shartlaridan MS Excel va PLANEXP dasturlari bo‘yicha birgalikda yechildi. Bunda olingan natijalar bo‘yicha yanchish barabanining 480 r/min aylanishlar sonida talab darajasidagi ajratish to‘liqligini ta’minlash uchun yanchish

barmoqlari soni 8 dona, ishchi tirqish kengligi 6 mm va o'simlik massasini uzatish tezligi 650 kg/h bo'lishi lozimligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Kunjut hosilini yanchib olish qurilmasining texnik tasnifi, sinov natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari”** deb nomlangan beshinchi bobida qurilmaning texnik tasnifi, sinovlardan o'tkazish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash natijalari keltirilgan.

Ishlab chiqilgan qurilmaning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonlarni ishonchli bajardi va uning ish-sifat ko'rsatkichlari unga qo'yilgan talablarga to'liq mos keldi.

O'tkazilgan hisoblar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqilgan kunjut hosilini yanchib oladigan qurilma qo'llanilganda kunjut urug'ini yanchib olishga sarflanadigan to'g'ridan-to'g'ri (ekspluatatsion) xarajatlar 78 % ga, mehnat sarfi esa 82,1 % ga kamayadi. Buning hisobiga bitta qurilmadan kunjut hosilini yanchib olishda foydalanilganda 14 260 050 UZS yillik iqtisodiy samaraga erishiladi.

XULOSA

“Kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va parametrlarini asoslash” mavzusidagi texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari asosida quyidagi xulosalar va takliflar taqdim etiladi:

1. Kunjut hosilini yanchishning mavjud mashina va qurilmalarning konstruksiyalari hamda ular bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning tahlili kunjut hosilini yanchib oladigan qurilmani ishlab chiqish va qo'llash kunjut hosilini yig'ishtirishda ish sifati va unumini oshirish, mehnat sarfi va boshqa xarajatlarni kamaytirish imkonini berishini ko'rsatdi.

2. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlarning natijalari bo'yicha:

ishlab chiqilgan yanchish qurilmasining o'tkazish qobiliyati, yanchiladigan massaning qalinligi, uni uzatish tezligi va uyum zichligiga bog'liq ravishda kunjut donlarini eng kam shikastlash bilan yuqori yanchish samaradorligi va ish unumini ta'minlash uchun yanchish barabanining uzunligi va diametri mos ravishda $L_b = 1050$ mm va $D_b = 500$ mm bo'lishi lozim;

yanchish barabanida o'simlik massasining to'planib-tiqilib qolmasligi, shuningdek, ortiqcha mexanik ta'sir natijasida donning shikastlanmasligi, poyalar bilan tashqariga chiqarib yuborilmasligi va donli aralashmaning elakka to'liq uzatilishi ta'minlanishi uchun dekaning uzunligi $L_d = 1050$ mm; radiusi – $R_d = 250$ mm va kengligi – $B_d = 545$ mm bo'lishi kerak;

yanchish barabani valining diametri yuqori mustahkamlikni ta'minlash orqali yuqori yuklamalarda uning sinish yoki deformatsiyalanish xavfini kamaytirish, yanchish texnologik jarayonining sifatli bajarilishi nuqtai nazaridan $d \geq 46$ mm bo'lishi lozim;

yanchish apparatida o'simlik massasining baraban o'qi bo'ylab bir tekis harakatlanishini ta'minlash uchun barmoqlar spiralsimon shaklda joylashtirilishi va ular orasidagi burchak $\gamma = 45^0$; barmoqlar soni $z = 8$ dona, va ish jarayonida ta'sir etuvchi kuchlar ostida egilmasligi uchun diametri $D_b \geq 9,1$ mm bo'lishi kerak.

3. Yanchish barabanining aylanish tezligi va ishchi tirqishi kengligi yanchish

qobiliyatiga differensial ta'sir ko'rsatadi. Baraban tezligi ortishi bilan yanchish samaradorligi ham oshadi, lekin ishchi tirqish kengayib borishi bilan kamayadi. Shuningdek, barabanning aylanish tezligining haddan tashqari yuqori bo'lishi donning shikastlanishi ortishiga olib keladi.

4. O'simlik massasining uzatish tezligi 650 kg/h, yanchish barabanining aylanish tezligi 480 r/min yanchish barmoqlari soni 8 dona va ishchi tirqish kengligining 6 mm bo'lishi eng kam don shikastlanish bilan eng yuqori yanchish samaradorligini ta'minlash imkonini yaratadi.

5. Ishlab chiqilgan qurilmani kunjut hosilini yanchib olishda qo'llash mehnat sarfini 82,1 foizga va foydalanish xarajatlarini 78,0 foizga kamaytirish va shuning hisobiga bitta yanchish qurilmasini qo'llashdan 14 260 050 UZS yillik iqtisodiy samara olish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

ШЕРОВ ДИЛМУРОД ХАМРА УГЛИ

**РАЗРАБОТКА И ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ УСТРОЙСТВА
ДЛЯ ОБМОЛОТА УРОЖАЯ КУНЖУТА**

**05.07.01 - Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Гульбахор - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1.PhD/T5445

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.qxmiti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Равшанов Шавкат Улашович

кандидат технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Рахматов Орифжон

доктор технических наук, профессор

Мамажанов Султопали Исламалиевич

кандидат технических наук, старший научный сотрудник


Ведущая организация:

Центр сертификации и испытания сельскохозяйственной техники и технологии

Защита диссертации состоится «15» 01 2026 г. в 14⁰⁰ на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.T.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства. (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, поселок Гульбахор, улица Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (зарегистрирована под № 5/11). Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, поселок Гульбахор, улица Самаркандская, 41. Тел.: (+99855) 903-14-18. e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Автореферат диссертации разослан «24» 12 2025 г.
(Протокол рассылки № 68 от «24» 12 2025 года).



А.Тухтакулиев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор

Б.П.Артикбаев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам, старший научный сотрудник

Р.Р.Худайкулиев

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, кандидат технических наук, старший научный сотрудник



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире разработка и внедрение энерго-и ресурсосберегающих и высокопроизводительных технологий и устройств для отделения семян сельскохозяйственных культур от колосьев и бобов занимает одно из ведущих мест. К концу XX века объем выращивания кунжута в мире составил около 3 млн. тонн, а если учесть, что в 2024 году с площади 11 млн. гектаров было выращено более 7 млн. тонн кунжута¹, то одной из важных задач является разработка энерго-ресурсосберегающих машин с высоким качеством работы и производительностью при уборке его урожая. В связи с этим большое внимание уделяется разработке устройств, обеспечивающих качество работы технологического процесса обмолота кунжута.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку энерго-и ресурсосберегающих и высокопроизводительных технологий и устройств для повышения эффективности уборки сельскохозяйственных культур, в том числе кунжута. В этом направлении, в частности, одной из важных задач является разработка конструктивной схемы технических средств для обмолота урожая кунжута, обеспечивающей высокое отделение семян и минимальное повреждение в процессе взаимодействия рабочих органов со стеблями и коробочками кунжута, обоснование технологического процесса работы, разработка рабочих органов, обеспечивающих качество работы и ресурсосбережение. Вместе с тем, для обмолота кунжута необходимо разработать устройство для отделения семян на требуемом уровне с минимальным повреждением.

